

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/5.05.2023.B/Qx.01.17 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**MUSURMANOVA MOHINUR MUROT QIZI**

**MIRZACHO‘L VOHASI SUG‘ORILADIGAN BO‘Z-O‘TLOQI  
TUPROQLARI, ULARNING BIOLOGIK FAOLLIGI VA UNI YAXSHILASH  
YO‘LLARI**

**03.00.13 – Tuproqshunoslik**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии  
(PhD) по биологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy  
(PhD) on biological sciences**

**Musurmanova Mohinur Murot qizi**

Mirzacho‘l vohasi sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlari, ularning biologik faolligi va uni yaxshilash yo‘llari..... 3

**Мусурманова Мохинур Мурот кизи**

Орошаемые сероземно-луговые почвы Мирзачульского оазиса, их биологическая активность и пути улучшения..... 21

**Musurmanova Mohinur Murot qizi**

Irrigated serozem-meadow soils of the Mirzachul oasis, their biological activity and ways of improvement..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 45

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/5.05.2023.B/Qx.01.17 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**MUSURMANOVA MOHINUR MUROT QIZI**

**MIRZACHO‘L VOHASI SUG‘ORILADIGAN BO‘Z-O‘TLOQI  
TUPROQLARI, ULARNING BIOLOGIK FAOLLIGI VA UNI YAXSHILASH  
YO‘LLARI**

**03.00.13 – Tuproqshunoslik**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/B1293 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash veb-sahifasida (nauka@nuu.uz.) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Turdimetov Shaxobiddin Muxitdinovich</b> biologiya fanlari doktori, dotsent
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Turdaliyev Avazbek Turdaliyevich</b> biologiya fanlari doktori, professor <b>Saidova Munisa Ergashevna</b> biologiya fanlari doktori, professor
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Buxoro davlat universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/5.05.2023.B/Qx.01.17 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "20" iyun soat 10<sup>00</sup> dagi majlisda bo'lib o'tadi (Manzil: 100179, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Talabalar shaharchasi, Universitet ko'chasi, 4-uy, O'zbekiston Milliy universitetining Biologiya va ekologiya fakulteti binosi, 4-qavat, 403-xona. Tel.: (+99871) 246-67-72; (e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiyasi bilan O'zbekiston Milliy universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№95-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-67-72.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil "04" iyundagi № 2 raqamli reyestr bayonnomasi).

**Z.A.Jabbarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
b.f.d., professor

**D.Y.Maxkamova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, b.f.f.d., dotsent

**G.M.Nabiyeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
b.f.d., dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyo tuproqlarining 33 foizi degradatsiyaga uchragan, har yili eroziya tufayli 24 milliard tonna unumdor tuproq qatlami yo‘qolib ketmoqda, bu jarayon yanada kuchayib bormoqda. Tuproqdan noto‘g‘ri foydalanish natijasida tuproq unumdorligi pasayishi kuzatilmoqda. Bular gumus miqdorining kamayishi, oziqa moddalari balansining buzilishi, tuproq eroziyasi, tuproqning ifloslanishi va sho‘rlanishi, o‘g‘itlardan noto‘g‘ri foydalanish oqibatida yuz bermoqda<sup>1</sup>. Shu sababli dunyo mamlakatlarida tuproqlarning hozirgi holatini, ularni tabiiy va antropogen omillar ta‘sirida o‘zgarishini aniqlash, tuproq unumdorligini saqlashda hamda tuproq biologik faolligi oshirishda o‘simlik resurslaridan foydalanish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Dunyoda tuproqlar, ayniqsa sug‘oriladigan tuproqlar unumdorligini saqlash, qayta tiklash va oshirishda turli o‘simlik resurslaridan foydalanib tuproqlarning fizikaviy, kimyoviy va fizik kimyoviy xossalarini yaxshilash hamda biologik faolligini oshirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilmoqda. Bu borada tuproqlarning biologik faolligini o‘zlashtirish natijasida o‘zgarishi, tuproqlar unumdorligini oshirishda o‘simlik resurslaridan foydalangan holda tuproq xossalarini yaxshilash, foydali mikroorganizmlar sonini orttirish, fermentativ holatini yaxshilash orqali tuproqni organik moddalarga boyitishga doir tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamiz sug‘oriladigan tuproqlarining hozirgi holatini aniqlash, biologik faolligini yaxshilash, turli o‘simlik resurslari ekish orqali tuproqlar unumdorligini saqlash, qayta tiklash, muhofaza qilish hamda ulardan oqilona va samarali foydalanish bo‘yicha keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar olib borilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiya”sida “... mahsulot tannarxini 30-35 foizga qisqartirish, paxtadan o‘rtacha 37 sentner va g‘alladan 70 sentner hosil olishga erishish<sup>2</sup>” bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Shuning uchun ham, sug‘oriladigan tuproqlarning hozirgi xossa-xususiyatlarini aniqlash, biologik faolligini davriy o‘zgarishi bo‘yicha qiyosiy taqqoslash, tuproqlarning mikrobiologik va fermentativ holatiga turli o‘simlik resurslarining ta‘siri asosida degradatsiya jarayonlarini oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 2-fevraldagi 903-son “Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2024-yil 13-fevraldagi PQ-71-sonli “Qishloq xo‘jaligi yerlari degradatsiyasiga qarshi kurashish, tuproqning gumus miqdori va unumdorligini oshirishni qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-

<sup>1</sup> <https://xn--e1alid.xn--p1ai/journal/publication/1517>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi haqida»gi Farmoni.

huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Mirzacho‘l vohasi tuproqlarining xossa va xususiyatlarini o‘rganish, biologik xossalarining sug‘orish natijasida o‘zgarishi, tuproqning unumdorligini turli o‘simlik resurslaridan foydalanib oshirish hamda mikrobiologik tarkibi va fermentativ holatini yaxshilash bo‘yicha bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari xorijiy olimlar V.A.Kovda, Y.I.Pankova, Y.Mishenko, V.I.Lopushniyak, J.D.Anderson, T.Xingyan, G.Otto, S.Yao, K.A.Nikulchev, Y.P.Myakushko, A.V.Dedov, A.A.Mushinskiylar va respublikamiz olimlaridan S.P.Suchkov, S.F.Lazerev, O.K.Kamilov, R.Q.Qo‘ziyev, M.M.Toshqo‘ziyev, N.Y.Abduraxmonov, Sh.M.Bobomurodov, R.Qurvontoyev, I.U.Urazbayev, L.A.G‘ofurova, G.M.Nabiyeva, N.B.Raupova, Sh.M.Turdimetov, D.A.Qodirova, D.Y.Maxkamova, R.Oripov, B.M.Xoliqov, A.A.Iminov, F.B.Namozov, I.Ernazarov va boshqalar tomonidan olib borilgan. Lekin Mirzacho‘l vohasi tuproqlarining mikrobiologik faolligini o‘zlashtirish hamda sug‘orishlar davomiyligi natijasida o‘zgarishi, o‘simlik resurslari yordamida biologik faolligi va fermentativ holatini yaxshilashga oid tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘limning ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Guliston davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti “Agrotuproqshunoslik va melioratsiya” kafedrasining tematik rejasidagi “Mirzacho‘l vohasi tuproqlarining unumdorligini tiklash, saqlash va oshirish” nomli bosh ilmiy mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Mirzacho‘l vohasi sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarining biologik xossalaridagi o‘zgarishlarni aniqlash va o‘simlik resurslaridan foydalangan holda tuproq unumdorligini yaxshilashga doir tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Mirzacho‘l vohasi sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarining o‘ziga xos mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda tabiiy-iqlim sharoitlarini tahlil qilish va solishtirish;

tuproq kesmalarini takroriy qo‘yish orqali o‘zlashtirish va sug‘orish natijasida tuproqning mikrobiologik holatida yuz bergan o‘zgarishlarini o‘rganish, ularni tahlil qilish;

tuproqning fizik va agrokimyoviy xossalariga turli o‘simlik resurslarining ta‘sirini aniqlash;

tuproqning biologik faolligi va fermentativ holatiga turli sideratlarining ta‘sirini o‘rganish, solishtirish;

turli o‘simliklar resurslaridan foydalanib, undan keyingi ekilgan ekinlarning hosildorligini o‘zgarish mexanizmlarini ochib berish;

sugʻoriladigan boʻz-oʻtloqi tuproqlarining biologik faolligini yaxshilash yoʻllari yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** Mirzachoʻlning eskidan va yangidan sugʻoriladigan boʻz-oʻtloqi tuproqlar, siderat ekinlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** tuproqning mexanik tarkibi, fizik xossalar, agrokimyoviy koʻrsatkichlari hamda ularning yaxshilanishi va unumdorligi, tuproqning biologik faolligi, fermentativ holati va ularning oʻzgarishi, siderat ekinlar, gʻoʻza, kuzgi bugʻdoy hosildorligi hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dala va laboratoriya tadqiqotlari tuproqshunoslikda umumqabul qilingan usullar boʻyicha amalga oshirilgan. Tuproq tahlillari Ye.V.Arinishkinaning «Руководство по химическому анализу почв» qoʻllanmasi asosida, maʼlumotlarni matematik-statistik tahlili V.A.Dospexovning «Методика полевого опыта» qoʻllanmasida keltirilgan dispersion uslubi boʻyicha hamda “Microsoft Excel” dasturi yordamida, tuproqdagi fermentlarning faolligi F.X.Xaziyevning «Методы почвенной энзимологии», mikroorganizmlarning miqdori Zvgyansevning «Микробиология и биохимия почв» qoʻllanmasi asosida bajarilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Mirzachoʻl vohasi yerlarini oʻzlashtirish, ekin ekish va sugʻorishlar davomiyligi natijasida boʻz-oʻtloqi tuproqlar tarkibidagi bakteriyalar, zamburugʻlar va aktinomitsitlarning sonida yuz bergan oʻzgarishlar aniqlangan;

Mirzachoʻl vohasi tuproqlarining haydalma qatlamida yangidan sugʻoriladigan tuproqlardan (1 g tuproqda 150 ming donadan) eskidan sugʻoriladigan tuproqlar tomon (1500 ming donagacha) bakteriyalar sonining ortib borilgani dalillangan;

oʻsimlik resurslaridan foydalanilgan holda sugʻoriladigan boʻz-oʻtloqi tuproqlarning fizik xossalarini yaxshilash va oziqa moddalari bilan boyitish uchun siderat ekinlari tanlangan hamda ularning tuproq xossalariga ijobiy taʼsiri asoslangan;

sugʻoriladigan boʻz-oʻtloqi tuproqlarda siderat ekinlardan suli ekilganda ammonifikator bakteriyalari ( $4,5 \times 10^6$  KHB/g), javdar ekilganda mineral azotni oʻzlashtiruvchi bakteriyalar ( $3,0 \times 10^5$  KHB/g) hamda aktinomitsitlar ( $7,5 \times 10^3$  KHB/g), xantal ekilganda mikromitsitlar ( $9 \times 10^2$  KHB/g) eng yuqori boʻlishi aniqlangan;

tuproqdagi katalaza fermenti raps ekilganda 0,32 ml  $O_2/5g$  tuproqda, inventeraza fermenti javdar ekilganda 0,90 glyukoza/0,2g tuproq va ureaza fermenti esa raps ekilganda 0,06 mg  $NH_4^+/5 g$  tuproqda yuqori koʻrsatkichga ega boʻlganligi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“Mirzachoʻl vohasi sugʻoriladigan tuproqlarining biologik faolligi va uni yaxshilash” nomli tavsiyanoma ishlab chiqilgan;

siderat ekinlaridan foydalangan holda tuproqning xossalarini yaxshilash boʻyicha agrotexnikaviy ishlanmalar ishlash natijasida sideratlardan yuqori miqdorda biomassa qolishga erishilgan.

sugʻoriladigan tuproqlarning biologik faolligini yaxshilash boʻyicha biologik tadbirlar ishlab chiqilishi natijasida tuproqdagi mineral shakldagi azotni

o'zlashtiruvchi bakteriyalarning soni xantal ekilgan variantda 16 ming dona KHB/g dan 290 ming dona KHB/g gacha, raps ekilgan variantda ammonifikator bakteriyalar soni  $1,5 \times 10^3$  KHB/g dan  $1,3 \times 10^7$  KHB/g gacha oshishi aniqlangan.

tuproq xossalarining yaxshilanishi natijasida kuzgi bug'doyning hosildorligi fatseliya ekilgan variantda 21,4 foizgacha, g'o'za ekinining hosildorligi raps ekilgan variantda 12,0 foizgacha oshishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Olingan nazariy natijalarning amaliy ma'lumotlarda tasdiqlanganligi, dala va laboratoriya usullaridan foydalangan holda variatsion-statistik ishlovdan o'tkazilganligi, kuzatilgan qonuniyatlar va olingan ma'lumotlarning bir-biriga mosligi, tajribada olingan natijalarning milliy va chet el tadqiqotlari bilan taqqoslanib baholanganligi, tadqiqot natijalarining respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalarda muhokama etilganligi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilganligi olingan ilmiy-tadqiqot natijalarining ishonchliligini ko'rsatadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Mirzacho'l vohasi sug'oriladigan bo'z-o'tloqi tuproqlarining o'zlashtirish va sug'orish natijasida tuproqning biologik faolligida ro'y bergan o'zgarishlarni aniqlanganligi, mikroorganizmlar tarkibi va sonidagi o'zgarishlar, turli o'simlik resurslari yordamida tuproqning fermentativ holatiga ta'sir mexanizmlari ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, turli o'simlik resurslarini yetishtirib tuproqqa qo'shib haydab yuborish (sideratsiya) natijasida tuproqning fizik xossalari, oziqa moddalari balansining yaxshilanishi, undan keyin ekilgan g'o'za va kuzgi bug'doy hosildorligining ortishi, o'simliklar hayotida zarur bo'lgan foydali mikroorganizmlar va fermentlar sonining ortganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mirzacho'l vohasi sug'oriladigan bo'z-o'tloqi tuproqlarning o'zlashtirish va sug'orish natijasida mikrobiologik tarkibining son hamda sifati jihatidan o'zgarishi, turli o'simlik resurslaridan foydalanib tuproq biologik faolligi hamda fermentativ holatini yaxshilash bo'yicha olingan ilmiy va amaliy natijalar asosida:

sug'oriladigan bo'z-o'tloqi tuproqlarining unumdorligini o'zgarishi va uni yaxshilash bo'yicha "Mirzacho'l vohasi sug'oriladigan tuproqlarining biologik faolligi va uni yaxshilash" nomli tavsiyanoma Sirdaryo viloyatida qishloq xo'jaligi boshqarmasida amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jalik vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2024-yil 11-noyabrdagi 05/05-04-582-son ma'lumotnomasi). Natijada viloyatdagi mavjud dehqon va fermer xo'jaliklari sug'oriladigan tuproqlari unumdorligini saqlash, qayta tiklash, biologik faolligini oshirish orqali qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori hosil olish uchun majmuaviy agrokimyoviy, meliorativ va agrobiologik tadbirlarni amalga oshirishda qo'llanma sifatida xizmat qilgan;

sug'oriladigan bo'z-o'tloqi tuproqlarining fizik, agrokimyoviy xossalarini siderat ekinlaridan foydalanib yaxshilash bo'yicha agrotexnikaviy ishlanmalar Sirdaryo viloyati Oqoltin tumani Farg'ona massividagi "Ko'rkam dala chamani"

fermer xo‘jaligining 33,2 ga maydoniga joriy qilindi (Qishloq xo‘jalik vazirligi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2024-yil 11-noyabrdagi 05/05-04-582-son ma‘lumotnomasi). Natijada sideratlardan 1 gektar raps ekilgan maydonda 20,8 t/ga, fatseliyada 18,2 t/ga, xantalda 15,4 t/ga biomassa qolishiga erishilgan hamda xantal ekilgan variantda tuproq zichligi 0,07 g/sm<sup>3</sup> gacha kamayishi va g‘ovakligining 3,5 foizgacha ortishi, fatseliya ekilgan variantda gumusning miqdori 0,913 foizdan 0,981 foizgacha, harakatchan fosforning miqdori 38,3 mg/kg dan 44,6 mg/kg gacha, raps ekilgan variantda harakatchan kaliy miqdorining 246 mg/kg dan 263 mg/kg gacha ortish imkoniyatini bergan;

sug‘oriladigan tuproqlarning biologik faolligini va fermentativ holatini o‘simlik resurslari yordamida yaxshilash bo‘yicha biologik tadbirlar Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani “Mirzaobod-agro-cluster” MCHJ 16,6 ga hamda Oqoltin tumani S.Siddiqov massividagi “Toxirov Muxiddin paxtasi” fermer xo‘jaligining 23,5 ga, jami 40,1 ga maydoniga joriy qilindi (Qishloq xo‘jalik vazirligi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2024-yil 11-noyabrdagi 05/05-04-582-son ma‘lumotnomasi). Natijada, tuproq unumdorligini yaxshilash va undan keyin ekilgan ekinlarning hosildorligini oshirish imkoniyati yaratildi, shuningdek, organik moddalarga boyishi, harakatchan oziqa moddalarining ortishi natijasida kuzgi bug‘doyning hosildorligi fatseliya ekilgan variantda 21,4 foizgacha, g‘o‘za ekinining hosildorligi raps ekilgan variantda 12,0 foizgacha ortgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta: 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, shundan, 1 ta tavsiyanoma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 116 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida** o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti va predmetlari tavsiflangan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotni ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarni nazariy hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Mirzacho‘l vohasi sug‘oriladigan tuproqlarining o‘rganilish holati**” deb nomlangan birinchi bobida mavzu bo‘yicha bajarilgan tadqiqot yakunlariga doir mahalliy, xorijiy adabiyotlarning fikr va mulohazalari keltirilgan va ijodiy yondashilgan.

Mirzacho‘l vohasi tuproqlari o‘zlashtirish va sug‘orish natijasida uning xossalarida katta o‘zgarishlar yuz bergan. Ushbu hududda olib borilgan tadqiqotlarda tuproqning meliorativ, ekologik, fizik, fizik-kimyoviy va agrokimyoviy xossalarining tavsifi keltirilgan hamda tuproqda ro‘y bergan o‘zgarishlari qayd etilgan. Lekin o‘zlashtirish va sug‘orish natijasida tuproqning biologik faolligining o‘zgarishi haqidagi tadqiqotlar kam olib borilganligi ta’kidlangan.

Shuningdek, tuproqlar unumdorligi va biologik faolligini oshirishda olib borilgan tadqiqotlarning sharhi keltirilgan. Olib borilgan tadqiqotlarda tuproq unumdorligini oshirish turli mintaqalarda turlicha bo‘lib, tabiiy-iqlim sharoitiga ko‘ra o‘ziga xos tadbirlarni qo‘llash taqoza etiladi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda Mirzacho‘l vohasi tuproqlaridagi biologik faolligini yillar davomida o‘zgarishlarini o‘rganish, tuproq unumdorligini oshirish uchun biologik usullardan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish maqsad qilib olinganligi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Mirzacho‘l vohasining tabiiy iqlim sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida Mirzacho‘l hududi iqlim sharoitlariga ko‘ra, yarim cho‘l mintaqasi kontinental subtropik iqlim guruhiga kirishi, hudud geografik o‘rnining o‘ziga xosligi, ya’ni sharq va janubdan tog‘ tizmalari bilan o‘rab olinganligi, g‘arb va shimoliy-g‘arbda ochiq kengliklari mavjudligi, hudud iqlimi keskin kontinental va nihoyatda quruqligi haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, mazkur bobda tadqiqot obyekti va hamda qo‘llanilgan usullari yoritilgan.

Sug‘orish natijasida vohalar iqlimining yumshoq bo‘lishi, kontinentalligi va quruqligi jihatlarining atrofdagi cho‘l hududlarga taqqoslaganda kamayishiga olib keladi. Bug‘lanishning kuchayishi vohalarda havoning absolyut va nisbiy namligini oshiradi, daraxt-buta o‘simliklarining ko‘pligi esa shamolning tezligini pasaytiradi. Vohalarda issiqlikning ko‘p qismi namlikning bug‘lanishiga sarf bo‘lishi oqibatida butun vegetatsiya davrida havo harorati cho‘lga nisbatan birmuncha past bo‘lib, bu farq 30°C gacha yetishi mumkin.

Dissertatsiyaning **“Mirzacho‘l vohasi sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarining xossa va xususiyatlari”** deb nomlangan uchinchi bobida sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarining morfologik belgilari, fizikaviy, kimyoviy, agrokimyoviy xossalari hamda mikrobiologik faolligi va uning o‘zgarishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Mazkur bobning **“Sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarining morfologik belgilar va fizikaviy xossalari”** qismida tadqiqot obyekti morfologik belgilarining tavsifi keltirilgan. Mirzacho‘l vohasi tuproqlarini o‘zlashtirish va sug‘orishlar natijasida o‘zgarishlarga uchrashi bo‘yicha ma’lumotlarda tuproqning morfologik belgilarida ham namoyon bo‘lishi qayd etilgan. Tuproqlar sug‘orila boshlangandan so‘ng uning kimyoviy va fizikaviy xossalarida o‘zgarishlar yuz beradi. Bunday o‘zgarishlar albatta tuproqning tashqi ko‘rinishiga va xossalariga ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlangan. Shuningdek, tuproqning mexanik tarkibi va umumiy fizik xossalari haqida ham ma’lumotlar berilgan.

Mazkur bobning **“Sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarining agrokimyoviy, kimyoviy va fizik-kimyoviy xossalari”** qismida tuproqlarning singdirish sig‘imi

hamda singdirish qobiliyati haqida va agrokimyoviy xossalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mirzacho‘l vohasi sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarining biologik faolligi va uning o‘zgarishi”** deb nomlangan to‘rtinchi bobi ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismi “Sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarining biogenligi” deb nomlangan, ikkinchi qismi esa “Sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarining mikrobiologik faolligining o‘zgarishi” deb nomlangan bo‘lib u yerda tuproqlarni o‘zlashtirish va sug‘orish natijasida mikrobiologik tarkibi hamda sonining o‘zgarishlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Ushbu jarayonlarni o‘rganish maqsadida 1957-1958-yillarda L.F.Lazerev (1961) tomonidan qo‘yilgan tuproq kesmalariga takroran tuproq kesmalari qo‘yildi va mikrobiologik tahlillar o‘tkazildi. Ushbu yillarda tanlab olingan obyektlar oltita bo‘lib, shundan uchta (1,2,4- tuproq kesmalari) qo‘riq yerlar, uchta (3,5,6- tuproq kesmalari) sug‘oriladigan yerlarga qo‘yilgan. 60 yil yil ichida ushbu uchastkalarining barchasi sug‘oriladigan tuproqlarga aylangan. Keyingi takroriy tajribalar natijasida qo‘riq yerlarning sug‘orishlar natijasida evolutsiyaga uchrashi, avvaldan sug‘oriladigan tuproqlarning esa yillar davomida o‘zgarishlari o‘rganilgan, jarayonlar solishtirilgan.

Tuproq biogenligi bo‘yicha yillar davomida o‘zgarishi 1-jadvalda keltirilgan. Sug‘orish va o‘zlashtirish davomiyligi natijasida mikroorganizmlarning sonining ortganligini kuzatish mumkin. Bu qatlamlar va massivlar bo‘yicha bir xilda kechmagan. Tayoqchasimon bakteriyalarning soni 65 yil davomida barcha kesmalar va chuqurliklarda ortganligini kuzatishimiz mumkin.

1-jadval

**Mirzacho‘l vohasi tuproqlarining biogenligi**  
(Vinogradov bo‘yicha to‘g‘ridan to‘g‘ri sanash)


№	Kesma	Chuqurligi, sm	1 g tuproqdagi umumiy mikroorganizmlar soni, million dona							
			1958-yil				2023-yil			
			Tayoqchasimon	Sharsimon	Boshqa	Jami	Tayoqchasimon	Sharsimon	Boshqa	Jami
1	1-kesma. “U.Nosir” massivi	0-30	29	1256	24	1309	33	1505	23	1561
		30-50	16	800	13	828	18	801	12	831
2	2-kesma. “Paxtakor” massivi	0-30	24	1367	29	1419	26	1406	34	1465
		30-50	29	1620	26	1675	27	1465	30	1523
3	3-kesma. “G‘alaba” massivi	0-30	49	2051	27	2127	57	2388	30	2475
		30-50	46	1152	23	1222	50	1389	23	1462
4	4-kesma. “M.Uzoqov” massivi	0-30	14	776	17	806	15	972	19	1006
		30-50	19	767	24	809	13	818	26	857
5	5-kesma. “Ishonch” massivi	0-30	23	1334	40	1396	31	1145	43	1218
		30-50	30	1174	32	1236	33	1192	32	1257
6	6-kesma. “Yangi hayot” massivi	0-30	21	1545	36	1602	24	1604	39	1667
		30-50	29	1409	39	1476	37	1785	42	1864

Sharsimon bakteriyalarning sonida ham o‘zgarishlar ro‘y berganligini kuzatish mumkin. 1-kesma o‘zlashtirmagan holda sharsimon bakteriyalar soni 0-30 sm qatlamda 1 g tuproqda 1256 mln donani tashkil etgan bo‘lsa, keyingi tadqiqotlarda 1500 mln donadan ortgan, 30-50 sm li qatlamda esa deyarli o‘zgarmagan. 2-kesmaning shu qatlamida esa sharsimon bakteriyalar sonining biroz kamayganligini kuzatish mumkin. Bu tuproq sho‘rlanish darajasini ortganligi bilan

bog‘liq. Eskidan sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlardan iborat 5-kesmada 0-30 sm da ham sharsimon bakteriyalar sonining biroz kamayganligi kuzatilgan.

Qolgan barcha kesmalarning chuqurliklarida soni bir xilda o‘sganligi kuzatiladi. Umuman olganda, o‘zlashtirish va sug‘orishlar davomiyligining ortib borishi bilan mikroorganizmlar sonining ham ortib borganligini kuzatishimiz mumkin. Bu mikroiklimning o‘zgarishi, organik moddalarning to‘planishi va tuproqlarning madaniylashganligi bilan bevosita bog‘liq.

GPA muhitida bakteriyalar, aktinomitsitlar va zamburug‘larning soni may oyida hisoblab chiqildi. Natijalar 1-rasmda keltirilgan. Bahorgi muddatda bakteriyalar, aktinomitsitlar va zamburug‘lar yaxshi rivojlangan. Yozda va kuzda esa bakteriyalarning rivojlanishi sustlashgan. Aktinomitsitlar va zamburug‘lar sho‘rlanmagan tuproqlarda bahor, yoz va kuzda intensiv rivojlangan, sho‘rlangan tuproqlarda esa bahor va kuzda yaxshi rivojlangan.



1-rasm. **Mirzacho'l vohasi chirituvchi mikroflorasi va uning o'zgarishi.**

1-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan ma'lumki, eskidan sug‘oriladigan tuproqlarda yangidan sug‘oriladigan tuproqlarga nisbatan metatrof bakteriyalar ko‘p.

Bu qonuniyat eskidan sug'oriladigan tuproqlarning madaniylashganligi hisobiga ro'yobga chiqqan. Mikroorganizmlarni miqdoriy hisobi haydalma va haydalma osti qatlamining biologik faolligini hamda unumdorligini yuqoriligini ko'rsatadi. Bakteriyalar soniga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, 1 va 2-kesmalar 1958 yilda qo'riq yerlar bo'lgan sharoitda 0-30 hamda 30-50 sm qatlamlardagi miqdori bir-biriga yaqin. Shu vaqtda sug'orilmaydigan sharoitdagi 4-kesmada bakteriyalarning miqdori eng kam bo'lib, 0-30 sm qatlamda 170, 30-50 sm qatlamda esa 1 g tuproqda 43 mingtani tashkil etgan.

Bakteriyalar soniga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, 1 va 2-kesmalar 1958 yilda qo'riq yerlar bo'lgan sharoitda 0-30 hamda 30-50 sm qatlamlardagi miqdori bir-biriga yaqin. Shu vaqtda sug'orilmaydigan sharoitdagi 4-kesmada bakteriyalarning miqdori eng kam bo'lib, 0-30 sm qatlamda 170, 30-50 sm qatlamda esa 1 g tuproqda 43 mingtani tashkil etgan.

Bakteriyalarning eng ko'p miqdori eskidan sug'oriladigan bo'z-o'tloqi tuproqlarning (6-kesma) haydalma qatlamiga to'g'ri keladi va 7820 ni tashkil etgan. Haydalma ostki qatlamda esa 650 ming g/donaga teng.

2023-yildagi natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak, eng katta o'zgarish bakteriyalarning sonida bo'lganligini kuzatish mumkin. 1 va 2-kesmalarda bakteriyalarning soni o'zlashtirish hamda sug'orish natijasida keskin oshgan. 2-kesmaning 0-30 sm qatlamida bakteriyalar soni 10 barobargacha ortgan. Lekin 4-kesmada sug'orishlar natijasida bakteriyalar soni ortmagan, hatto haydalma qatlamda uning soni bir oz kamaygan. Shuningdek, 3-kesmaning haydalma qatlamida bakteriyalar soni 3 barobargacha kamaygan. Bu tuproq sho'rlanish darajasining ortishi bilan bog'liq.

Aktinomitsitlarning soni ma'lum bir qonuniyat asosida o'zgarmagan.

1958-yil bilan solishtirilganda sonining kamayganligi, ayrim namunalarda esa umuman uchramaganligi kuzatildi. Faqatgina 2-kesmaning haydov qatlamida sezilarsiz, 30-50 sm qatlamda esa ularning soni bir barobarga ortganligini ko'rish mumkin. 3-kesmaning 30-50 sm qatlamda ham aktinomitsitlarning soni biroz ortganligi aniqlandi. Aktinomitsitlardan *Streptomyces* avlodiga mansub turlar uchradi. Rang tusiga ko'ra oqish, kulrang, qora, jigar rang, sariq, pushti rangdagi aktinomitsitlar farqlandi.

Zamburug'lar sonida ham o'zgarishlar ro'y bergan, sonining biroz ortishi kuzatilgan. Lekin takroriy qo'yilgan tuproq kesmalarida 4-kesmada, 3- va 5-kesmalarning haydalma qatlamida hamda 6-kesmaning 30-50 sm qatlamida zamburug'lar Chapeka oziqa muhitida uchramasligi aniqlandi.

1958-yildagi Mirzacho'l vohasi tuproqlari bo'yicha olingan ma'lumotlarga ko'ra, ularning biologik faolligi bo'yicha quyidagi tartibda joylashtirish mumkin. "Yangi hayot" massivida joylashgan eskidan sug'oriladigan tuproqlar; "Ishonch" massivida joylashgan eskidan sug'oriladigan tuproqlar; "G'alaba" massivida joylashgan yangidan sug'oriladigan tuproqlar; Mirzacho'lning markaziy qismida U.Nosir massivida joylashgan, sho'rlanmagan qo'riq tuproqlar; Mirzacho'lning sharqiy qismida M.Uzoqov massivida joylashgan, kuchsiz sho'rlangan tuproqlar,

Mirzacho‘lning g‘arbiy qismida “Paxtakor” massivida joylashgan, kuchli sho‘rlangan tuproqlar.

Qo‘riq sho‘rlanmagan och tusli bo‘z tuproqlarda (1-kesma) mikroorganizmlar jamoasi yaxshi rivojlangan, ular organik qoldiqlarning parchalanish va gumifikatsiya jarayonlarida ishtirok etadi, chirindi mahsulotlarini ildizdan oziqlanishigacha qayta ishlashgacha ishtirok etuvchi mikroorganizmlar kam uchraydi. Bu yerlarda azotabakter va nitrifikatorlar umuman yo‘q, sellyulozali aerob bakteriyalar va denitrifikatorlar juda kuchsiz rivojlangan (2-jadval). Yuqorida ko‘rsatilgan mikroorganizmlar guruhi bahorda yaxshi rivojlanadi, yozda kuchsizroq va kuzda qaytadan yana faollashadi.

2-jadval

**Mirzacho‘l vohasi tuproqlarida mikrofloraning rivojlanishi**  
(1 g tuproqda ming dona)

№	Kesma	Chuqur-ligi, sm	1958-yil			2023-yil		
			Ammoni- fikator	Moy kislotali	Azota- bakter	Ammoni- fikator	Moy kislotali	Azota- bakter
1	1-kesma. “U.Nosir” massivi	0-30	550	1	0	66	0	0
		30-50	100	1	0	160	0	0
2	2-kesma. “Paxtakor” massivi	0-30	400	0,37	0	12000	1,3	0
		30-50	100	0,01	0	1400	0,6	0
3	3-kesma. “G‘alaba” massivi	0-30	10000	100	55	48	2	0
		30-50	550	5	0,05	420	0,6	0
4	4-kesma. “M.Uzoqov” massivi	0-30	70	4	0	15	0	0
		30-50	10	0,01	0	30	0	0
5	5-kesma. “Ishonch” massivi	0-30	5500	100	55	15	0,6	0
		30-50	1000	55	5,5	60	0	0
6	6-kesma. “Yangi hayot” massivi	0-30	10000	100	5,5	15	1,3	0
		30-50	1000	50,5	0,55	1,5	0	0


Kuchsiz sho‘rlangan qo‘riq och tusli bo‘z tuproqlarda (2-kesma) mikroflora kuchsiz rivojlangan. Bu tuproqlarda nitrifikatsiyalovchi va azotfiksatsiyalovchi mikroorganizmlar deyarli uchramaydi, aerob sellyuloza bakteriyalari juda ham kam miqdorda uchraydi. Bu yerda moy kislotla mikroorganizmlar juda ham kam.

Ammonifikatorlar esa yarim metrlik qatlamda uchraydi, pastga tomon uning miqdori kamayib borgan.

2-jadval ma‘lumotlarida ammonifikator bakteriyalari qo‘riq yerlardagiga nisbatan sug‘oriladigan maydonlarda ko‘proq uchrashi kuzatiladi. Lekin o‘zlashtirish va sug‘orishlar davomiyligida ular sonining keskin ortishi faqatgina 2-kesmada kuzatiladi. 3-kesmada sug‘orishlar davomiyligining ortishi bilan ammonifikatorlar sonining ham kamayib ketganligini kuzatish mumkin. Bu minerallashgan sizot suvlarining sathi bilan bevosita bog‘liq. Ammonifikator bakteriyalar yangidan o‘zlashtirilgan 3-kesmaning haydov qatlamida va eskidan o‘zlashtirilgan 6-kesmaning haydov qatlamida 1 g tuproqda 10 mln donadan ortgan. Takroriy qo‘yilgan kesmalarda faqatgina 2-kesmaning haydov qatlamida 12 mln donadan ortgan. Azotabakterlar ko‘pincha shilimshiq kapsula bilan o‘ralgan bo‘ladi, ko‘p miqdorda kislorod talab qiladi. Hujayralarida jigarrang pigment hosil qiladi, qari hujayralari yiriklashib, qalin po‘st bilan o‘raladi va sista hosil qiladi. Muhitning pH qiymatiga juda sezgir, namlikka juda talabchan, 25-30°Cda yaxshi rivojlanadi.

Sellyuloza bakteriyalari hashoratlar va qisqichbaqasimonlar tashqi qavati (xitin)ga mustahkamlangan o'simlik qoldiqlari (sellyuloza)ni faol parchalaydi, o'simlik o'zlashtira oladigan shaklga o'tkazadi.

2-rasm sellyulozali aerob bakteriyalar 1958-yildagi ma'lumotlarga ko'ra, 2-kesmaning haydalma va haydalma ostki qatlamlarida uchramagan. 2023-yilda ma'lumotlarda, haydalma qatlamda 1 g tuproqda 5 ming dona, haydalma ostki qatlamda esa 600 dona, sellyuloza anaerob bakteriyalar esa ushbu qatlamlarda 1 g tuproqda 2,5 ming dona uchrashi aniqlandi. Qo'riq yer bo'lgan 1-kesmaning 0-30 sm qatlamida sellyulozali aerob bakteriyalar 550 donani tashkil etgan bo'lsa, keyingi tadqiqotlarda (2023 yil) 2,5 ming donani tashkil etgan.




2-rasm. Mirzacho'l vohasi tuproqlarida mikrofloraning o'zgarishi.

Yangidan sug'oriladigan 3-kesmaning haydov qatlamida 55 ming donani tashkil etgan holda, sug'orishlar davomiyligining ortishi bilan 6 ming donagacha kamaygan. Xuddi shunday ma'lumot 5-kesmadan ham kuzatilgan. 6-kesmada esa aksincha, ushbu bakteriyalarning soni haydalma qatlamda biroz ortgan.

Sellyulozali anaerob bakteriyalarning soni va tarqalishi ham aerob bakteriyalarniki o'xshash hamda ulardan biroz kamroq tarqalgan. Faqatgina, 2-kesmaning haydov ostki qatlamida uning miqdori biroz yuqori ekanligini kuzatish mumkin.

Dissertatsiyaning beshinchi bobi "Mirzacho'l vohasi sug'oriladigan bo'z-o'tloqi tuproqlari unumdorligini yaxshilash yo'llari" deb nomlangan. Sug'oriladigan tuproqlarning biologik faolligini va fermentativ holatini o'simlik resurslari yordamida yaxshilash bo'yicha biologik tadbirlar Sirdaryo viloyati Oqoltin

tumani hamda Mirzaobod tumani “Mirzaobod -agro-cluster” MCHJ maydonida olib borilgan. Ushbu bobda turli siderat ekinlari ekish orqali tuproqda qoladigan biomassa, tuproqning zichligining o‘zgarishi, g‘ovakligining yaxshilanishi shuningdek, ushbu ekinlar ekish orqali tuproqdagi gumus, umumiy azot, fosfor, kaliy miqdorlarining o‘zgarishi, tuproq unumdorligini yaxshilash va undan keyin ekilgan ekinlarning hosildorligini oshirish, tuproqning organik moddalarga boyishi, harakatchan oziqa moddalarining ortishi bayon etilgan.



3-rasm. Sideratlar ta’sirida tuproqdagi nitratli azot, harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy miqdorlarining o‘zgarishi (2022-2024-yillar).

3-rasmda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, tuproqdagi harakatchan oziqa moddalarining miqdoriga ham ta’siri o‘rganilgan. Sideratlar ta’sirida harakatchan oziqa elementlarining o‘zgarishi yuzasidan olingan tajribalarga e’tibor qaratiladigan bo‘lsa, nitratli azotning miqdori barcha variantlarda haydalma ostki qatlamda yaxshi o‘zgarish bo‘lganligini kuzatish mumkin. Siderat ekinlari ta’sirida oziqa moddalarining o‘zgarishi harakatchan fosfor ta’sirida yaxshiroq seziladi. Ma’lumki, bo‘z tuproqlar serkarbonat bo‘lganligi sababli kalsiy fosfatlarning hosil bo‘lish ehtimoli yuqori. Shuning uchun ham harakatchan fosforning miqdori kam hisoblanadi. Tajribalarimizda nazorat variantiga nisbatan harakatchan fosfor miqdorining ortishi raps ekini ekilgan variantida kuzatildi. Dastlabki holatiga (38,3 mg/kg) ko‘ra 20 foizga (45,7 mg/kg) ortganligini kuzatish mumkin. Bunda raps ekin boshqa ekinlarga nisbatan harakatchan fosfor miqdoriga ko‘proq ta’sir ko‘rsatganligidan dalolat beradi.

